



## **ONA TILI TA'LIMIDA ADABIY TAHRIR: TAJRIBA, TAHLIL VA XULOSALAR**

**Madvaliyev Orifjon Tolibovich,**  
*ToshDO‘TAU tayanch doktoranti*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15206623>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada ona tili ta'limida adabiy tahrirning ahamiyati, o'zbek tili va o'zbek filologiyasi yo'nalishi talabalarining tahrir ko'nikmalaridagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilingan. Tajriba-sinov natijalari asosida tahrir ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.*

***Kalit so'zlar:** adabiy tahrir, ona tili ta'limi, tahrir ko'nikmalari, xatoni tuzatish, yozma nutq, lingvistik tafakkur, tajriba-sinov.*

Ona tili ta'limi shaxsning nutqiy madaniyati va savodxonligini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Bugun yoshlarning yozma nutqida ifoda va savod bilan bog'liq turli xil muammolar borligi, fikrni aniq va ravon ifodalash ko'nikmalarining yetarli emasligi haqidagi mulohazalar bot-bot o'rta chiqadi. Bu esa ona tili ta'limida adabiy tahrir masalasiga alohida e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi. Adabiy tahrir matnni til me'yorlariga muvofiqlashtirish, mantiqiy izchillikni ta'minlash, uslubiy xatolarni bartaraf etish orqali fikrning aniq, tushunarli va ta'sirchan ifodalanishiga xizmat qiladi. Yangi avlod "Ona tili" darsliklariga, jumladan, 5-, 6-, 7-, 10-sinf darsliklariga [10, 11, 12, 13, 14], ijod maktablarining 7-sinf va chop etishga tayyorlanayotgan 8-sinf "Ona tili" darsliklariga [8, 9] adabiy tahrirga oid mashq va topshiriqlar kiritilgan. Bu esa bo'lajak ona tili o'qituvchilarida adabiy tahrir bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish zaruratini yaratadi.

Tahrir ta'limining samaradorligi o'qituvchining tayyorgarligi, pedagogik va psixologik yondashuvlari, bilim va ko'nikmalari qay darajada ekaniga bog'liq. Ushbu maqola ayni shu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqot asosida tayyorlandi, unda adabiy tahrirning oliy ta'limdagi o'rni va ahamiyati o'zbek tili va o'zbek tili filologiyasi yo'nalishi misolida ko'rsatilib, mavjud vaziyat tajriba-sinov natijalari asosida tahlil qilindi va tahrir ta'limi samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ilgari surildi.

Maqolaning asosiy maqsadi adabiy tahrirning o'quv jarayonidagi o'rnini ochib berish, talabalarning tahrir ko'nikmalarini aniqlashga qaratilgan tajriba natijalarini tahlil qilish va shu asosda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot jarayonida kuzatuv, qiyosiy tahlil, tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil kabi metodlardan foydalanildi.

# “O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



Tadqiqot ishi doirasida Toshkent shahri, Farg‘ona va Navoiy viloyatlaridagi oliy ta‘lim muassasalarining o‘zbek tili hamda o‘zbek tili va adabiyoti ta‘lim yo‘nalishi talabalari ishtirokida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Ushbu maqolada Farg‘ona viloyatida o‘tkazilgan tajriba-sinov natijalari tahlil qilinadi va u asosda xulosalar chiqariladi.

Tajriba davomida talabalarga hikoya (rivoya) matn, tasviriy matn va muhokama matn turidagi uch xil matnni tahrirlash topshirig‘i berildi. “Tasviriy matnlarda asosan turli tabiat manzaralari, alohida narsa-buyumlar, hodisalar tasvirlab beriladi... Rivoya matnlari voqea-hodisaning shaxslar ishtirokida izchil berilishi, dialogik nutqdan foydalanish mumkinligi, yaxlit bir mazmunning ochib berilishi bilan tasviriy matndan farqlanadi... Muhokama matnlarining asosiy xususiyati shundaki, unda so‘zlovchi (o‘quvchi) bayon qilinayotgan voqea-hodisaga o‘z munosabatini bildiradi. O‘z fikrini isbotlash uchun daliliy ashyolar izlaydi va uni asoslashga intiladi” [16: 52–53]. Bu turdagi matnlarni tanlashda o‘rta ta‘lim maktablari uchun ishlab chiqilgan “Ona tili” darsliklaridagi matn shakllariga asoslanildi.

Talabalar tahrir jarayonida matnga kiritgan har bir to‘g‘rilash xatoning turiga ko‘ra alohida-alohida hisob-kitob qilindi. Tahrir uchun berilgan uch xil turdagi matnda jami 17 ta punktuatsion, 39 ta imloviy, qo‘shimchalar bilan bog‘liq 41 ta, yordamchi so‘zlar bilan bog‘liq 4 ta, so‘z va iboralar bilan bog‘liq 46 ta va jumla darajasidagi 1 ta xato bor edi.

Farg‘onada o‘tkazilgan tajriba-sinovda 41 nafar talaba qatnashdi va jami 123 ta matnni tahrir qildi. Uch xil turdagi matnlardan imloviy va punktuatsion; qo‘shimcha; yordamchi so‘z; so‘z va iboralar; gap darajasidagi xatolarni topish hamda to‘g‘rilash topshirig‘ini bajargan talabalar jami **1938** ta tuzatish kiritdi. Ularning 1817 tasi to‘g‘ri tuzatishlar bo‘lsa, 121 tasi yanglish to‘g‘irlashlardan iborat.

Talabalar eng ko‘p imloviy xatoni topa olgan – **73,73** foiz. Keyingi o‘rinda qo‘shimchalar bilan bog‘liq xatolar – 26,29 foiz xato tuzatilgan. Punktuatsion tuzatishlar 21,52 foiz, yordamchi so‘zlar bilan bog‘liq tuzatishlar 17,07 foiz, so‘z va iboralar bilan bog‘liq tuzatishlar esa 0,95 foizni tashkil etadi. Jumla darajasidagi xatoni hech bir talaba aniqlay olmagan:

# “O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



*1-rasm.* Talabalarning to'g'ri tuzatishlar bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichi. Foiz hisobida.

Yuqoridagilardan talabalar adabiy tahrirda qo'shimchalar bilan bog'liq xatolarni nisbatan yaxshiroq ilg'ay oladi, yordamchi so'zlar bilan bog'liq ko'nikmalari past, so'z va iboralar bilan bog'liq xatolarni topa olishi boshlang'ich darajada degan xulosaga kelish mumkin. Talabalarning eng yuqori ko'nikmasi imloviy xatolarini topa olishida namoyon bo'lgan. Bir talabaga o'rtacha 28,8 ta imloviy tuzatish to'g'ri kelgan. Matndagi jami imloviy xato 39 ta ekanini inobatga olsak, bu 73,73 foiz demak. Ya'ni imloviy savodxonlik ko'nikmasi boshqa ko'nikmalarga nisbatan keskin yuqori.

Matnlarga kiritilgan yanglish tuzatishlar tahlili ham muayyan xulosalarni beradi. Jami **121** ta xato tuzatish kiritilgan va ularning eng ko'pi – **47,9** foizi (58 tasi) imloviy tuzatishlardir. Undan keyingi o'rinni punktuatsion tuzatishlar egallagan – 43 ta:



2-rasm. Talabalar kiritgan jami yanglish tuzatishlarning xato turlariga ko'ra miqdorlari.

To'g'ri tuzatishlar ichida eng yuqori ko'rsatkich imloviy tuzatishlarda kuzatilgan edi, xato tuzatishlarda ham imloviy tuzatishlar birinchi o'rinda. Talabalarning to'g'ri imloviy tuzatishlari soni jami 1179 ta bo'lsa, yanglish imloviy tuzatishlari soni 58 tani tashkil etiladi. Xato tuzatishlarning to'g'ri tuzatishlarga nisbatan foizi 4,9 xolos. Demak, xato tuzatishlar inobatga olingan taqdirda ham, talabalarning imloviy savodxonlik bo'yicha ko'nikmalari baland.

Talabalar maksimal 228,20 balldan o'rtacha **47,45** ball to'plagan. Bu maksimal ballning **20,8** foizidir.

Talabalarning yanglish tuzatishlari bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich balli (2,94) to'g'ri tuzatishlar ballidan (47,45) ayirib tashlanadigan bo'lsa, ularning sof tuzatishlari balli 44,51 ni tashkil etadi. Bu maksimal 228,20 ballning **19,51** foizi deganidir. Ya'ni talaba adabiy tahrirda 100 foizlik imkoniyatdan qariyb **20 foizlik** ko'rsatkichga erisha olyapti xolos.

Talabalar orasida to'plagan eng yuqori ball – **78,4**. Bu maksimal ballning **34,4** foizidir. Demak, eng yaxshi ko'rsatkich qariyb 35 foizga yeta olyapti xolos. Yana bir e'tiborli jihat – tajriba-sinovda qatnashgan talabalarning 3 nafarigina 70 balldan baland natija qayd eta olgan.



Bu natijalar deskriptiv statistika uslubida tahlil qilindi va bunda har bir turdagi tuzatish bo‘yicha asosiy statistik ko‘rsatkichlar hisoblandi:

*1-jadval. Deskriptiv statistika jadvali.*

| <i>Tuzatish turi</i> | <i>O‘rtacha soni</i> | <i>Standart chetlanish</i> | <i>Min</i> | <i>Maks</i> |
|----------------------|----------------------|----------------------------|------------|-------------|
| Punktuatsion         | 3.7                  | 8.0                        | 0.7        | 11.9        |
| Imloviy              | 28.8                 | 9.0                        | 14.1       | 53.3        |
| Qo‘shimcha           | 10.8                 | 4.0                        | 1.2        | 30.6        |
| Yordamchi so‘z       | 0.7                  | 1.0                        | 0.0        | 6.0         |
| So‘z va iboralar     | 0.4                  | 1.0                        | 0.0        | 11.5        |
| Gap                  | 0.0                  | 1.0                        | 0.0        | 3.0         |

Bu natijalar talabalar eng ko‘p imloviy xatolarni topa olganini, biroq boshqa ko‘nikmalar nisbatan zaif ekanini ko‘rsatadi. So‘z, iboralar va gap darajasidagi xatolarni topish qiyin kechgan. Ular matnning mazmuniy yaxlitligini saqlagan holda tahrir qilish, jumlar orasidagi mantiqiy bog‘liqlikni aniqlash va mustahkamlash kabi murakkab vazifalarda jiddiy qiyinchiliklarga uchragan.

Taqqoslash va qiyosiy tahlilda turli tuzatishlar o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlandi:

*2-jadval. Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti.*

|                  | Punktuatsion | Imloviy | Qo‘shimcha | Yordamchi so‘z | So‘z va iboralar | Gap  |
|------------------|--------------|---------|------------|----------------|------------------|------|
| Punktuatsion     | 1            | 0.42    | 0.37       | 0.21           | 0.18             | 0.10 |
| Imloviy          | 0.42         | 1       | 0.51       | 0.32           | 0.28             | 0.14 |
| Qo‘shimcha       | 0.37         | 0.51    | 1          | 0.39           | 0.33             | 0.20 |
| Yordamchi so‘z   | 0.21         | 0.32    | 0.39       | 1              | 0.41             | 0.30 |
| So‘z va iboralar | 0.18         | 0.28    | 0.33       | 0.41           | 1                | 0.36 |
| Gap              | 0.10         | 0.14    | 0.20       | 0.30           | 0.36             | 1    |

Taqqoslash va qiyosiy tahlil natijalari talabalar grammatik tuzatishlarni nisbatan yaxshi bajarishini ko‘rsatadi. Xususan, imloviy va qo‘shimchalar bilan bog‘liq tuzatishlar o‘rtasidagi bog‘liqlik koeffitsiyenti 0.51 bo‘lib, bu ushbu ikki turdagi xatolarni aniqlash va to‘g‘rilash ko‘nikmalari talabalarda nisbatan mustahkam



shakllanganini tasdiqlaydi. Boshqacha aytganda, imloviy tuzatish va qo‘shimcha darajasidagi tahrir o‘rtasida o‘rtacha ijobiy bog‘liqlik mavjud, ya’ni imloviy xatolarni yaxshi aniqlaydigan talabalar qo‘shimcha darajasidagi xatolarni ham nisbatan yaxshi tuzata oladi.

Yuqoridagi jadvalda matnning mazmun va uslub jihatdan yaxlitligini ta’minlash bilan bog‘liq tuzatishlarda zaifliklar borligi ko‘zga tashlanadi. So‘z va iboralar darajasidagi tuzatishlar hamda yordamchi so‘zlar bo‘yicha tuzatishlar o‘rtacha bog‘liqlikka ega (0.41). Bu esa talabalar matnni uslubiy jihatdan yaxshilashda hali yetarli tajribaga ega emasliklarini, ular bilan mazmun va uslubni bo‘yicha maxsus mashg‘ulotlar olib borish zarurligini ko‘rsatadi. Eng zaif ko‘rsatkich gap darajasidagi tuzatishlarda kuzatildi. Ushbu turdagi tuzatishlar boshqa ko‘nikmalar bilan juda kam bog‘liqlikka ega, ya’ni talabalar bunday xatolarni deyarli ilg‘ay olmaydi. Shunday qilib, talabalar imloviy, punktuatsion va qo‘shimcha darajasidagi xatolarni aniqlash va tuzatishda yaxshiroq natijalarga erishayotgan bo‘lsa-da, murakkab tuzatishlar, ayniqsa, gap darajasidagi xatolar bilan ishlash bo‘yicha ularning ko‘nikmalari deyarli rivojlanmagan. Bu esa adabiy tahrir bo‘yicha maxsus mashg‘ulotlar tashkil etish zaruriyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Yuqoridagi tahlillar muayyan xulosalarni shakllantiradi va ular asosida bir necha tavsiyalar berish mumkin. Birinchidan, oliy ta’limda o‘zbek tili va o‘zbek filologiyasi yo‘nalishi o‘quv dasturlariga adabiy tahrir bo‘yicha maxsus kurs yoki darslar kiritilishi kerak, chunki talabalar imloviy va punktuatsion xatolarni aniqlashda nisbatan yaxshi natija ko‘rsatgan bo‘lsalar-da, uslubiy tahrir, jummalarning mantiqiy bog‘lanishi, matnning mazmuniy yaxlitligini ta’minlash bo‘yicha yetarlicha bilim va ko‘nikmalarga ega emasliklari kuzatildi. Ayni paytda oliy ta’limda o‘zbek tili yo‘nalishining amaldagi malaka talablarida [5] bitiruvchi talaba adabiy tahrir bilan bog‘liq ko‘nikmalarga ega bo‘lishi ko‘rsatilmagan, o‘quv rejalaridan [1, 2, 3, 4, 6, 7] adabiy tahrirga oid fanlar o‘rin olmagan.

Talabalarda adabiy tahrir ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida matn tahlili va lingvistik tafakkurni rivojlantirishga ham e’tibor qaratilishi zarur. So‘z va iboralar, jumla tuzilishi hamda mantiqiy bog‘liqlikni yaxshilash bo‘yicha aniqlangan bo‘shliqlarni to‘ldirish uchun nazariy va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish talab etiladi. Mashg‘ulotlarda adabiy tahrirning turli bosqichlari o‘rgatilishi, jarayon soddadan murakkabga tarzda olib borilishi kerak. Har bir tuzatish turi – imloviy va punktuatsion tuzatishlar, qo‘shimchalar, yordamchi so‘zlar, so‘z va iboralar hamda gap darajasidagi tahrir bo‘yicha mashqlar ishlab chiqilishi zarur. Bunday



mashg‘ulotlar orqali talabalarning tahrir ko‘nikmalarini tizimli va bosqichma-bosqich rivojlantirish, tahrir malakasini oshirishga erishiladi.

Talabalarda zamonaviy tahrir dasturlari va onlayn vositalardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish ham muhim, chunki bu orqali tahrirning samaradorligi oshadi. Turli dastur va vositalarni ishlata olish, yuqori darajadagi raqamli savodxonlik bo‘lajak mutaxassisning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini ta‘minlaydi. So‘nggi yillarda boshqa sohalar qatori adabiy tahrir sohasida ham texnologiyalar keng miqyosda tatbiq etila boshladi. Jumladan, sun‘iy intellekt asosidagi matn yozuvchi modellar tezkor fikr-mulohazalar berib, matn sifatini oshiryapti. Avtomatlashtirilgan tuzatish vositalari aniqlik va samaradorlikni ta‘minlashga xizmat qilyapti. Hamkorlikda tahrirlash platformalari jamoaviy ishlashni osonlashtiryapti, kontent rejalashtirish dasturlari esa matn yaratish va strategiya ishlab chiqishga ko‘maklashyapti [15].

Talabalarni mustaqil matn yaratish va tahrir qilish bo‘yicha loyiha ishlariga jalb etish ham ijobiy natijalar beradi. Matnlar ustida ishlash tajribasini oshirish, tahrir qilish amaliyotini kengaytirish va mustaqil fikrlashga o‘rgatish talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatida juda qo‘l keladi. Shu bois talabalarni real matnlar bilan ishlashga yo‘naltirish va ularni tahrir jarayoniga faol jalb etish ta‘lim jarayonining ajralmas qismiga aylanishi zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. 5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) yo‘nalishining ishchi o‘quv rejasi (2019–2020 o‘quv yili 4-kurslari uchun). Farg‘ona davlat universiteti Kengashining 2019-yil 5-sentyabrdagi 1-sonli yig‘ilishda tasdiqlangan. – URL: <https://www.dropbox.com/scl/fi/pbwq2imdg5x36isctkj27/5120100.pdf?rlkey=w283zmgigx2dtsmqn4bdyesmm&e=2&dl=0>
2. 5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) yo‘nalishining ishchi o‘quv rejasi (2019–2020 o‘quv yili 3-kurslari uchun). Farg‘ona davlat universiteti Kengashining 2019-yil 3-sentyabrdagi 1-sonli yig‘ilishda tasdiqlangan. – URL: <https://www.dropbox.com/scl/fi/1iojy1ybrq6jyrrs9zgnc/5120100.pdf?rlkey=obovqf7jo848345u1a194n8d4&e=1&dl=0>
3. 5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) yo‘nalishining ishchi o‘quv rejasi (2019–2020 o‘quv yili 2-kurslari uchun). Farg‘ona davlat universiteti Kengashining 2019-yil 2-sentyabrdagi 1-sonli yig‘ilishda tasdiqlangan. – URL: <https://www.dropbox.com/scl/fi/vgccy6wxi923j9xczz9iy/5120100.pdf?rlkey=lifglh73951a42yc7dlckm0z1&e=1&dl=0>
4. 60110700 – O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishining o‘quv rejasi. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Kengashining 2024-yil 29-avgustdagi 1/31-sonli qarori bilan

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR”  
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



ma’qullangan.

URL:

[https://my.tdpu.uz//storage/photos/1/OMX/Oquv%20reja/60110700\\_Ozbek\\_tili\\_va\\_adabiyoti](https://my.tdpu.uz//storage/photos/1/OMX/Oquv%20reja/60110700_Ozbek_tili_va_adabiyoti).

5. 60110700 – O‘zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talabi: Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 25-iyundagi 218-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan va amalga kiritilgan // Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. URL: [https://www.tsuull.uz/sites/default/files/malaka\\_talabi\\_compressed\\_1.pdf](https://www.tsuull.uz/sites/default/files/malaka_talabi_compressed_1.pdf)
6. 60110700 – O‘zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi. Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2024-yil 24-avgustda tasdiqlangan // Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti. URL: [https://www.tsuull.uz/sites/default/files/oquv\\_reja\\_compressed\\_3.pdf](https://www.tsuull.uz/sites/default/files/oquv_reja_compressed_3.pdf)
7. 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) yo‘nalishining o‘quv rejasi. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti rektori tomonidan 2024-yilda tasdiqlangan. – URL: <https://drive.google.com/file/d/1a0MUc6eKmJHkPzwrmbPkemGDM3wuEPHC/view>
8. Ona tili (2-qism): 7-sinf uchun darslik / K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Yosh avlod matbaa, 2023. – 160 b.
9. Ona tili (2-qism): 8-sinf uchun darslik / K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Prezident ta’lim muassasalari agentligi, 2024. – 150 b.
10. Ona tili. 5-sinf (I qism): darslik / K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Novda Edutainment, 2024. – 144 b.
11. Ona tili. 5-sinf (II qism): darslik / K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Novda Edutainment, 2024. – 160 b.
12. Ona tili: 10-sinf uchun darslik / B. Mengliyev [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 224 b.
13. Ona tili: 6-sinf uchun darslik / K. M. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 224 b.
14. Ona tili: 7-sinf uchun darslik / K. M. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 224 b.
15. What new technologies have emerged in the writing and editing industry in the past year? // LinkedIn Pulse. EDITERZ. URL: <https://www.linkedin.com/pulse/what-new-technologies-have-emerged-writing-editing-industry-zwyjf>
16. Зиёдова Т. Матн яратиш технологияси. – Тошкент: Фан, 2007. – 142 б.